



**ALFRAGANUS
UNIVERSITY**

FILOLOGIYA VA ADABIYOT / ФИЛОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРА

21/46

IJTIMOIIY FANLAR / СОЦИАЛЬНЫЕ НАУКИ

47/69

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR / ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ


70/87

IQTISODIYOT VA TURIZM / ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ

87/99

2023 yil 1-son

«ALFRAGANUS» xalqaro ilmiy jurnali



Bosh muharrir
Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich
*ALFRAGANUS UNIVERSITY rektori,
professor, iqtisodiyot fanlari doktori*

Bosh muharrir o'rinbosari
Muminov Nozim Gaffarovich
*ALFRAGANUS UNIVERSITY prorektori,
professor, iqtisodiyot fanlari nomzodi*

Mas'ul kotib
Xo'jayev Mo'minjon Isoxonovich
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti,
falsafa doktori (PhD)*

Tahririyat kengashi:
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich - *O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali rektori*
Vaxabov Abduraxim Vasikovich - *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori*
Murtazayeva Raxbar Xamidovna - *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori*
Paxrutdinov Shukritdin Ilyosovich - *A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti professori, siyosiy fanlari doktori*
Alimbekov Adhambek Kamolovich - *Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori*
Jabborov Nurboy Abdulhakimovich - *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori*
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich - *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori*
Muminov Kobiljan Kadirovich - *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, физика-математика fanlari doktori*

Xalmirzayev Axmadjon Axunovich - *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi*
Zakirov Nodir Uzuevich - *Respublika Ixtisoslashtirilgan Kardiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi bo'limi rahbari, tibbiyot fanlari doktori*

Ismailov Azizbek Ruzimahmatovich - *ALFRAGANUS UNIVERSITY ta'sischi, PhD*
Maxmudov Muhammadismoil Muxitdinovich - *Perfect university rektori, PhD, dotsent*
Norov Toji Omonovich - *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori*
Shukurov Yorkin Alidjanovich - *O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi*
Raximjanov Masrur Nugmanovich - *PhD, ALFRAGANUS UNIVERSITY katta o'qituvchisi*
Namazova Yulduz Muzaffarovna - *PhD, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti*

Tahririyatning xalqaro kengashi:
Birol Merkan - *Najmitdin Erbakan nomidagi davlat universiteti, Siyosiy fanlar fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida professori, fan doktori (Turkiya Respublikasi)*
Altunina Varvara Viktorovna - *I. Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Oliy biznes va tadbirkorlik maktabi direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)*
Aliyeva Inobbat Akramovna - *I. Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Boshqaruv va hududiy rivojlanish Institutining talaba salohiyatini rivojlantirish ta'lim ilmiy klasteri boshlig'ining muovini, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)*
Raximshikova Mavluda Karimjanovna - *Muxtor Auev nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi (Qozog'iston)*
Zenkova Inga Vladimirovna - *Yevfrosiniya Polotskaya nomidagi Polotsk davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida mudiri, PhD, dotsent (Belarus Respublikasi)*

Chief editor
Egamberdiev Farmonkul Tursunkulovich
*Rector of ALFRAGANUS UNIVERSITY,
Professor, Doctor of Economics*

Deputy of chief editor
Muminov Nozim Gaffarovich
*ALFRAGANUS UNIVERSITY vice-rector,
professor, candidate of economic sciences*

Executive Secretary
Khujayev Muminjon Isoxonovich
*Associate Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD)*

Editorial board:
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich - *academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of economic sciences, G. V. in Tashkent. Rector of the branch of Plekhanov Russian University of Economics*
Vakhobov Abdurahim Vasikovich - *professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of economics*
Murtazaeva Rakhbar Khamidovna - *professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of history*
Pakhrutdinov Shukritdin Ilyosovich - *Professor of the National Research Institute for Professional Development of Pedagogues and Training in New Methods named after A. Avloni, Doctor of Political Sciences*
Alimbekov Adhambek Kamolovich - *professor of Tashkent State University of Oriental Studies, doctor of philology*
Jabbarov Nurboy Abdulhakimovich - *Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, doctor of philology*
Saifnazarov Ismail Saifnazarovich - *professor of Tashkent State University of Economics, doctor of philosophy*
Muminov Kobiljan Kadirovich - *professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of physical and mathematical sciences*
Khalmirzaev Akhmadjon Akhunovich - *associate professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, candidate of geography*
Zakirov Nadir Uzuevich - *Head of the Department of the Republican Specialized Cardiology Scientific and Practical Medical Center, Doctor of Medical Sciences*
Ismailov Azizbek Ruzimahmatovich - *founder of ALFRAGANUS UNIVERSITY, PhD*
Makhmudov Muhammadismoil Mukhitdinovich - *Rector of Perfect University, PhD, associate professor*
Norov Toji Omonovich - *Associate Professor of Tashkent State University of Economics, Doctor of Philosophy*
Shukurov Yorkin Alidjanovich - *a teacher of the International Islamic Academy of Uzbekistan*
Rakhimjanov Masrur Nugmanovich - *PhD, senior teacher at ALFRAGANUS UNIVERSITY*
Namazova Yulduz Muzaffarovna - *associate professor (PhD) of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

International Board of Editors:
Birol Merkan - *Professor, Doctor of Science, Faculty of Political Sciences, Department of Economic Theory, State University named after Najmitdin Erbakan (Republic of Turkey)*
Altunina Varvara Viktorovna - *Director of the Higher School of Business and Entrepreneurship, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Doctor of Sciences (Pedagogy), Professor (Russian Federation)*
Aliyeva Inobbat Akramovna - *Deputy Head of Student Potential Development at the Institute of Management and Regional Development, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Associate Professor (Russian Federation)*
Rakhimshikova Mavluda Karimzhanovna - *associate professor of South Kazakhstan University named after Mukhtar Auev, candidate of philosophy (Kazakhstan)*
Ziankova Inha Vladimirovna - *Head of the Economics Department of the Euphrosyne Polotskaya State University of Polotsk, PhD (Republic of Belarus)*



МУНДАРИЖА

РЕКТОР ҚУТЛОВИ2

Қаландар Абдурахмонов Ходжаевич
Шакаров Зафар Гаффорович
ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ИМКОНИАТЛАРИДАН СА-
МАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ3

Рахбар Хамидовна Муртазаева
ЎЗБЕКИСТАН В ВИТКЕ МИРОВЫХ МИГРАЦИОННЫХ
ПРОЦЕССОВ12





Филология ва адабиёт / Филология и литература

Нурбой Абдулҳакимович Жабборов
АЛИШЕР НАВОИЙ ВА МАОНИЙ АҲЛИ20

Nazokat Gulmuradovna Jurayeva
MUMTOZ SHE'RIYATDA BOBUR G'AZALLARINING
POETIK XUSUSIYATLARI.....30

Ikhtiyar Ergashevich Umirov
PARAPHRASES AND THEIR SPECIAL TYPES.....35



Ижтимоий фанлар / Социальные науки

Фармонқул Турсунқулович Эгамбердиев
Нозим Гаффарович Муминов
АҲМАД АЛ ФАРҒОНИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ
ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ЯНГИ ЖИҲАТЛАРИ.....46

Хушвақт Тожибоевич Дониёров
ДАВЛАТ, ЖАМИЯТ ВА ДИН МУНОСАБАТЛАРИНИ
ЎЗARO ТАРТИБГА СОЛИШГА ОИД
КОНЦЕПЦИЯЛАР53

Аслиддин Шавкатович Обидов
КОНФЕССИЯЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИККА
ЭРИШИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ЎРНИ.62



Рақамли технологиялар / Цифровые технологии

Ҳакимжон Насиридинович Зайнидинов,
Бунёд Раҳимжонович Азимов,
Ғолиб Махамматякубович Нишонбоев
МАШИНАЛИ ЎҚИТИШДА ҚўЛЛАНИЛАДИГАН ПО-
ЛИГАРМОНИК СПЛАЙНЛАР ТАҲДИЛИ.....69

Комил Ахматович Ташев,
Абдуазиз Абдугаффарович Абдурахманов
ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АЛГОРИТМ-
ЛАРИНИ ТАРМОҚ ҲУЖУМЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА
ОЛДИНИ ОЛИШ ТИЗИМЛАРИДА ҚўЛЛАШ.....75

Иқтисодиёт ва туризм / Экономика и туризм

Анвар Базарбаевич Гафуров
БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШДА
АХБОРОТЛАШТИРИШ ТИЗИМИНИНГ МУҲИМЛИГИ
("ЎЗБЕК КўМИР АЖ МИСОЛИДА").....87





Nazokat Gulmuradovna Jurayeva

MUMTOZ SHE'RIYATDA
BOBUR
G'AZALLARINING POETIK
XUSUSIYATLARI

ПОЭТИЧЕСКАЯ
ХАРАКТЕРИСТИКА ГАЗАЛЕЙ
БАБУРА
В КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

POETIC ADJECTIVES OF GAZALS OF
BABUR
IN CLASSICAL POETRY

Annotatsiya

Mazkur maqolada bayt va uning o'ziga xos xususiyatlari, baytga qo'yiladigan poetik talablar va mumtoz she'riyatimizning tarixiy taraqqiyotida ularning qay darajada saqlanishi hamda rivojlanishi tadqiq qilingan. Mumtoz poetika ob'ekti sifatida saardast shoir Z.M.Bobur ijodi olindi. Bobur g'azallarida Bayt tarkibi, uning yetakchi nazariy talablari, turli poetik janrlar tarkibida ado etgan vazifalari, turlari ochib berilgan. Shuningdek, g'azal tarkibidagi shoh baytni aniqlash usullari to'g'risida mushohada yuritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются стих и его характеристики, поэтические требования к стиху, степень их сохранения и развития в историческом развитии нашей классической поэзии. В качестве объекта классической поэтики было взято творчество великого поэта З. М. Бабур. В газелях Бабур выявлен состав байта, его ведущие теоретические требования, функции и типы разных поэтических жанров, а также рассмотрены способы определения шах бейта в газели.

Abstract

This article examines the verse and its characteristics, the poetic requirements for the verse, and the degree to which they are preserved and developed in the historical development of our classical poetry. The work of the great poet Z.M. Babur was taken as an object of classical poetics. In Babur's ghazals, the composition of the verse, its leading theoretical requirements, the functions and types of different poetic genres have been revealed. Also, the methods of determining the main verse in the ghazal have been observed.

Kalit so'zlar

g'azal, shoh bayt, janr, tur, tazkiranavis, lirik masnaviy, poetik fikr, tarkibband, tarjiband, aforistik baytlar.

Ключевые слова:

газель, шах байт, жанр, тип, тазкиранавис, лирический маснави, поэтическая мысль, композиция, перевод, афористические стихи.

Key words:

ghazal, main verse, genre, type, tazkiranavis, lyric masnavi, poetic thought, composition, translation, aphoristic verses.

¹ Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, ALFRAGANUS UNIVERSITY, Toshkent, O'zbekiston. e-mail: jurayevanazokat3@gmail.com. ORCID: 0000-0001-6269-6291



KIRISH

Mumtoz gʻazallarida talablariga binoan bayt misralarining har biri mustaqil maʼno va mustaqil ifoda shakliga ega boʻlishlari lozim. Biroq voqelik taʼsirida lirik kechinma tabiatining murakkablashib borishi baytning birinchi misrasidagi fikrning ikkinchi misraga koʻchishini, yaʼni birinchi misradagi poetik gʻoyaning ikkinchi misrada yakunlanishini ham taqozo qildi. Mumtoz poetikada «tadmin» (bizda «tazmin») deb nomlanuvchi bu poetik hodisa sheʼrning aybi, nuqsoni sanalgani. Ammo oʻzbek mumtoz sheʼriyatida tadmin hodisasi u yoki bu darajada mavjud. Ayniqsa, Alisher Navoiy gʻazaliyotida tadmin maxsus poetik usul darajasiga koʻtarildi. Baytda tadmin qoʻllash usuli Bobur gʻazallarida ham, juda oz boʻlsa-da, qoʻllanilgan. Uning quyidagi baytida fikriy va sintaktik (ifoda) koʻchuv koʻzga tashlanadi:

*Dardim koʻrub muolajada zoeʼ etma umr
Kim, jonda dardi ishq durur bedavo manga.*

Shu oʻrinda bir narsani alohida taʼkidlab oʻtish lozim. Bobur gʻazallarini sinchiklab kuzatish shuni koʻrsatdiki, bayt misralari oʻrtasidagi mazmun va sintaktik koʻchuv usuli uning gʻazallarida nisbatan kam uchraydi. U imkon boricha bayt misralari oʻrtasidagi mazmun va ifoda mustaqilligini saqlashga harakat qilgan, faqat imkoniyati topilmagan holatlardagina tadmin qilishga majbur boʻlgan.

Bayt va qofiya munosabati mumtoz poetikada alohida kuzatishlarga asos boʻlgan. Masalan, Shamsuddin Muhammad bin Qays ar- Roziy har bir bayt maʼno, vazn va qofiya jihatidan bir xil boʻlishi shart ekanligini qayd etadi. Baytga xos bunday xususiyatni Atoulloh Xusayniy ham koʻp oʻrinlarda taʼkidlaydi. Darhaqiqat, bayt va vazn munosabati bilan biz oʻzbek mumtoz sheʼriyatini kuzatdik hamda shu narsaga amin boʻldikki, bayt misralari tarkib, vazn nuqtai nazaridan bir xil boʻlishlari shart. Baytning birinchi misrasi qanday tarkibiy qismlardan iborat boʻlsa, uning ikkinchi misrasi ham ana shunday tarkib hamda vazndan tashkil topishi shart. Baytning yagona qofiyaga ega boʻlishi masalasida ham shuni aytish kerakki, baytga asoslangan janrlarda har bir asar yagona bitta qofiyaga ega boʻlishi lozim. Bu qofiya esa monorim, yaʼni yagona tovush uygʻunligiga asoslanadi.

METOD

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz gʻazallarida ikki xil munosabatdagi misralardan tarkib topgan baytlar yaratadi. Birinchi tipdagi baytlarda misralar oʻzaro bir-birlarini tasdiqlash yoki kuchaytirishga xizmat qiladilar. Ular oʻrtasidagi munosabat mazmunan teng va bir-birini kuchaytiradi:

*Yo qoshing yangligʻ egilgan jismi zorimnimu dey?
Yo sochingdek tiyra boʻlgʻon roʻzgʻorimnimu dey?*

Oshiqning mahbuba hajru firoqidan qilgan shikoyati ifodalangan ushbu baytning birinchi misrasida go'zalning qoshidek egilgan o'zining qomatidan shikoyat qiladi. Aslida ana shu birgina shikoyatning o'zi ham mahbubaning rahm-shafqatsizligini bildirish uchun yetarli. Ammo u bu bilan qanoat qilmaydi. Shu bois u ikkinchi misra orqali mahbubaning sochidek qora bo'lgan ro'zg'ori-hayotidan shikoyat qiladi. Har ikki misrada ifodalangan shikoyat, ya'ni egilgan nochor qomat va qora bo'lgan hayot ko'shilib, oshiq hayotining naqadar og'irligi to'liq, aniq ochiladi. Demak, ikki xil holat, ikki xil narsa yoki kayfiyat birikib, lirik obrazning to'liq tasvirini va ruhiy holatini aks ettiradi.

Misralar shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham mustaqil bo'lib, bir-birlariga tobe emaslar. Har bir misra mustaqil holda obrazning biror belgisini, sifatini, holat va kayfiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu baytning yana bir xususiyati shundaki, oshiqning egilgan qomati va qaro bo'lgan ro'zg'origa sabab bo'lgan narsalarni aytish orqali bir paytning o'zida ana shu narsalarni ta'riflaydi ham. Mahbuba qoshi qancha egilgan bo'lsa, oshiqning qomati shuncha egilgan, mahbubaning sochlari qay darajada qora bo'lsa, uning hayoti ham shu darajada qorong'u.

Ikkinchi tipdagi baytlarda esa misralar o'zaro birin- ketinlikda sabab-oqibat munosabatida birikadilar. Masalan, quyidagi baytda misralar o'rtasida ana shunday aloqa mavjud:

*Kimki bo'lg'ay sen kibi olamda dildori aning,
Har qayon azm aylasa, bo'lgay xudo yori aning.*

O'z-o'zidan ayon bo'lib turibdiki, baytda baxtli, omadli inson haqida so'z yuritilmokda. Bu omadli, baxtli inson kayokqa yursa, qanday ishga qo'l ursa, xudo unga yordam beradi, qo'llab-kuvvatlaydi. Chunki dunyoda uning sevgan, ko'ngli istagan yori bor. Bu esa uning omadlilikidan dalolatdir. Bobur ham o'zi yaratgan baytlaridagi qofiya yagonaligiga, ularning misra mazmunini va bu mazmun orqali muayyan poetik g'oyani ifodalash uchun xizmat qildirishga bo'ysundirgan:

*Ne chamanda sarv bor ul qomati ra'no kibi,
Ne guliston ichra gul bor ul ruhi zebo kibi.*

NATIJA

Ushbu bayt misralari «ra'no, zebo» kabi so'zlar qofiyasi orqali mazmunan birlashgan. Har ikki so'z oxiridagi «o» tovushi raviydir. Ular misralarning mazmunini shakllantirishda muhim o'rin tutadilar. Lirik qahramoi uchun qomati ra'noga o'xshagan go'zaldek hech bir chamanda sarv yo'q, uning go'zal yuzidek gul esa hech bir gulistonda yo'q. Demak, go'zalning ta'rifu tavsifida qofiyalangan so'zlarning ma'nolari yetakchilik qiladi. Chunki chamandagi sarvni ra'no qomatga muqoyasa qilmasa, gulistondagi gulni uning zebo yuziga qiyoslamasa, tavsifdan biror ma'no chiqmaydi. Mana shuning o'zi ko'rsatib turibdiki, bayt tarkibida qofiya na faqat baytga ohangdorlik beradi, balki misralarni ma'no uyg'unligi orqali birlashtirib, baytning umumiy mazmunini, uning g'oyaviy birligini ham tashkil etadi.

O'zaro sabab-oqibat munosabati orqali bog'langan misralardan tashkil topgan baytlar ko'p jihatdan lirik asar konfliktini rivojlantirish, asar dramatzimini kuchaytirish va lirik kechinma oqimini istalgan yoqqa burish uchun imkon beradi. Masalan, yuqorida keltirilgan baytdagi baxtli, omadli oshiqning ahvoli kutilmaganda teskari tomonga ketganligi g'azalning uchinchi baytida yana sabab-oqibat munosabati orqali kuchli dramatzizm bilan ifodalanadi:

*Keldim, ersa kelmadi hargiz aning ko'ngliga rahm,
Bordim, ammo bormadi ko'nglumdin ozori aning.*

Baytning birinchi misrasida oshiqning mahbuba huzuriga shafqat tilab kelishi va guzalning rahm qilmaganligi ifodalansa, ikkinchi misrada oshiqning uning huzuridan ketishi, ammo yuragidan yorning ozori ketmaganligi aytilgan. Darhaqiqat, kungil sevgan yor huzuriga rahm istab borish, ammo unga erisholmay qaytish kishi qalbida bir umr unutilmas ozor bo'lib qolishi tabiiy hol. Mana shu hayotiy noxush holatni shoir sabab-oqibat munosabatidagi bayt vositasida butun ziddiyati, dramatik tarangligi bilan bera olgan.

MUNOZARA

O'zbek g'azalchiligida har bir misrasi ikkitadan hashvga ega bo'lgan musamman baytlar, ayniqsa, ko'p. Bunga sabab shuki, musamman baytning obraz yaratish va g'oyani mufassal ifodalash imkoniyati juda katta. Qolaversa, vazn nuqtai nazaridan baytning eng mukammal chegarasi musamman bilan chegaralanadi. Undan katta, ya'ni har bir misrasi uchttadan hashvga ega bo'lgan bayt g'azalchilikda uchramaydi. Ifoda imkoniyati kengligidan bo'lsa kerak, o'zbek mumtoz she'riyatida musamman baytlar haddan ortiq ko'p. Uning namunalarini har bir shoir ijodida uchratish mumkin. Masalan, Lutfiy she'riyatida:

Ko'zum chu qil/ di ko'rkluklar / yuzi birla /o'zin sig'mas,
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun

To'kulgay o/xiri andin / yer uzra suv/bikin qonim.
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun

Ushbu bayt hazaji musammani solim vaznida, ya'ni har bir misrada mafoiylun ruknining to'liq (solim) holda to'rt marta takrorlanishi asosida yaratilgan. Shuning uchun baytning har bir misrasi mazmunni tugal, mustaqil ifodalashga kulaydir.

Alisher Navoiy g'azalidan keltirilgan quyidagi bayt ham hazaji musammani solim vaznida yaratilgan:

Ne ma'ni ko'r/ dilarkim, su / ratingga bo'l / dilar vola,
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun
Chu ma'ni o/lamida is/tamas ahli /yaqin surat.
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun

Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi bayti ham hazaji musammani solim vaznida yozilgan:

Qo'y, ey oqil,/nasihat so'z/larinkim dil/pisand ermas
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun
Mening devo/na ko'nglumga/nasihat su/dmand ermas.
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun

Ogahiy g'azalidan keltirilgan quyidagi bayt ham hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

Agar ul oy / ishi tun-kun/manga yuz javr /u noz o'lsun,
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun
Damo dam ko'p /roq o'lsun der/manu demon/ ki oz o'lsun.
V - - - V - - - V - - - V - - -
Ma fo iy lun mafo iy lun ma fo iy lun mafo iy lun

Yuqorida biz to'rt ulkan shoirning g'azallaridan faqat hazaj bahriga taalluqli to'rtta bayt keltirdik. Bunday baytlarning ramal, rajaz va boshqa bahrlarda yozilgan namunalari juda ko'p. Ayniqsa, musamman baytlarning oxirgi rukni o'zgarishlarga uchragan namunalari - zihoflari juda ko'p. Bu holat musamman baytlarning har bir misrasi mustaqil mazmun ifodalashga qulayligidan, umuman, bunday baytning mazmuniy qamrovi kengligidan dalolat beradi.

Bayt so'zlarning tuzilishi va tarkibiga ko'ra uch tipdan murabba', musaddas va musamman kabilardan iborat ekan, bu bir tomondan, ularning tarkiban mutanosib-simmetrik uyg'unlikda bo'lishlarini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, bayt misralarining vazn nuqtai nazaridan mutlaqo teng bo'lishlariga yordam beradi.

Xulosa

Demak, o'zbek mumtoz she'riyatida purmazmun, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak baytlar yaratishda ikki xil munosabat ifodalovchi ikki xil usuldan barcha shoirlar unumli foydalanganlar. Birinchisi muayyan poetik fikrni ta'kidlash, tasdiqlash va kuchaytirishga xizmat qiluvchi mutlaqo mustaqil mazmun hamda ifoda shakliga ega bo'lgan misralardan tuzilgan baytlar. Ikkinchisi - birinchi misrasi ikkinchi misraga sabab bo'lgan yoki birinchi misradagi mazmunning sababini ikkinchi misra ifodalovchi baytlar. Bunday baytlar badiiy tafakkur rivojining nisbatan keyingi bosqichlarida, ya'ni har bir poetik tezis yoki mazmunni aniq dalillash ehtiyoji asosida yuzaga kelgan. Har ikki tipdagi baytlarni yaratish mumtoz she'riyatimizda barqaror poetik an'anaga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek mumtoz she'riyatida musaddas bayt yaratish mustahkam an'ana tusini olgan. Bu esa she'riyatni hayotga yaqinlashtirish, uni muayyan qoliplar doirasida qolib ketishdan saqlab qolgan.

Список использованной литературы

1. Qoshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. 1-tom. - T.: O'zFA nashriyoti, 1960.- 499 b.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. - T.: Fan, 1994. - 143 b.
3. Kudelin A.B. Motiv v tradisionnoy arabskoy poetike VIII-X vv. // Vostochnaya poetika. Spesifika xudojestvennogo obraza.- M.: Nauka, 1983. - S.7-24.37.
4. Kudelin A.B. Stilisticheskaya evolyusiya arabskoy poezii U1-1X vv. // Problemi istoricheskoy poetiki literatur Vostoka. - M.: Nauka, 1988.
5. Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. // O'zbek tili va adabiyoti. - 2002. - № 2 - B.77-90.
6. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. - M.: Nauka, 1982. -327 s.
7. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz“ asari. -T.:1986;